



XALQ DEPUTATLARI NAMANGAN SHAHAR KENGASHINING Q A R O R I

2024-yil 15-may

VI-59-40-6-91-K/24

Namangan shahar

2024-yil birinchichorak yakuni bilan Namangan shahar mahalliy budjeti daromadlari va xarajatlarining ijrosi haqida

Xalq deputatlari Namangan shahar Kengashi Namangan shahar hokimligining moliya bo‘limining Namangan shahar hokimligining Namangan shahar mahalliy budjeti 2024-yil birinchi chorak yakuni bilan daromadlari va xarajatlari ijrosi to‘g‘risidagi hisobotini eshitib, Xalq deputatlari Namangan shahar Kengashining “2024-yil uchun Namangan shahar budjetini tasdiqlash to‘g‘risida” 2023-yil 28-dekabrdagi VI-55-103-6-91-K/23-son qarori va O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon va qarorlariga binoan muayyan ishlar amalga oshirilganligi qayd etadi.

Namangan shahar mahalliy budjeti daromadlari prognoz ko‘rsatkichlari 2024-yil 1-chorak yakuni bilan aniqlangan prognoz rejasi 101,4 mlrd. so‘m bo‘lib haqiqatda 101,9 mld. so‘mga yoki 100,1 foizga bajarildi.

Shahar mahalliy budjeti xarajatlari 2024-yil 1-chorak uchun aniqlangan rejasi 185,7 mlrd. so‘m bo‘lib, chorak yakuni bilan 182,7 mlrd. so‘m 98,4 foiz xarajatlar moliyalashtirildi.

Bunda, Namangan shahar bo‘yicha umumiy xarajatlarning 53,0 foizi ya’ni 96,7 mlrd. so‘m ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash xarajatlari uchun sarflandi. Misol uchun:

Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi uchun 14,0 mlrd. so‘m

Umumiy ta’lim uchun 8,3 mlrd. so‘m

Tibbiyot yo‘nalishi uchun 67,7 mlrd. so‘m

madaniyat va sport sohalariga 6,7 mlrd. so‘m

ozodlikka chiqqan O‘zbekiston fuqarolarini bir martalik ijtimoiy yordam to‘lovlariga 250,0 mln. so‘m

hududlarni obodonlashtirish xarajatlariga 20,8 mlrd. so‘m

qishloq xo‘jaligi sohasiga 1,0 mlrd. so‘m

davlat boshqaruv organlariga xarajatlar 17,9 mlrd. so‘m

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi “Budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-5072-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2024-yil 30-yanvardagi KQ-666-IV-son qarori bilan tasdiqlangan Nizomga muvofiq Xalq deputatlari Namangan shahar Kengashining “2024-yil uchun Namangan shahar budjetini tasdiqlash to‘g‘risida” 2023-yil 28 dekabrdagi VI-55-103-6-91-K/23-son qarori bilan tasdiqlangan budjet parametrlarida rejalashtirilgan 7,1 mlrd. so‘m mablag‘lar “Fuqarolar tashabbusi” jamg‘armasiga yo‘naltirildi.

Bundan tashqari ijtimoiy himoyaga muhtoj aholining ehtiyojmand “Temir daftar”ga kiritilgan oilalarни moddiy qo‘llab-quvvatlash maqsadida “Saxovat va ko‘mak” jamg‘armasiga 1,0 mlrd. so‘m mablag‘ sarflandi. “Obod qishloq” va “Obod mahalla” davlat dasturi doirasida xarajatlar uchun 500,0 mln. so‘m;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 26-dekabrdagi 1047-son qarori bilan tasdiqlangan jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan mulkiy zararlarni kompensatsiya qilish bo‘yicha maqsadli jamg‘arma mablag‘larini shakllantirish xarajatlari uchun shahar mahalliy budgetidan 500,0 mln. so‘m mablag‘ moliyalashtirildi.

Shuningdek, 2023-yilda qaytarish sharti bilan Namangan shahridagi ijtimoiy soha ob’ektlarining issiqlik ta’minoti tizimini modernizatsiya qilish loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqib, davlat ekspertizasidan o‘tkazilishi bilan bog‘liq xarajatlar uchun viloyat budgetidan olingan ssuda mablag‘ini qaytarish xarajatlari uchun 1,0 mlrd. so‘m mablag‘ yo‘naltirildi.

Mahalliy budjet ijrosini ta’minlash, budjet mablag‘laridan maqsadli, samarali foydalanishda:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-iyundagi PF-6247-son Farmoniga muvofiq, mahalliy budjet mablag‘larining sarfi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni shahar hokimligining **rasmiy veb-saytiga** joylashtirish;

hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar tomonidan ham rasmiy veb-saytlarida yoki shahar hokimligining rasmiy veb-saytlariga ma’lumotlar joylashtirish bo‘yicha shahar hokimligi mas’ullari tomonidan yetarli darajada ish tashkil etilmayotganligi qayd etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-dekabrdagi “Mahalliy davlat hokimiyati organlarining moliyaviy erkinligini oshirish, mahalliy budgetlarga tushumlarning to‘liqligini ta’minlash bo‘yicha soliq va moliya organlari javobgarligini kuchaytirishga oid qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5283-son Farmoniga muvofiq, Namangan shahar iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘ining shahar mahalliy budgeti 2023-yil to‘qqiz oyi yakuni bilan ijrosi haqidagi hisoboti eshitilib “Davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 24-moddasi va O‘zbekiston Respublikasi Budget Kodeksining 27-moddasiga asosan, xalq deputatlari Namangan shahar Kengashi

QAROR QILADI:

1. 2024-yil birinchi chorak yakuni bilan Namangan shahar mahalliy budjet daromadlari va xarajatlarining ijrosi Namangan shahar iqtisodiyot va moliya bo‘limi

boshlig‘i Z.Mo‘minov va Namangan shahar soliq inspeksiyasi boshlig‘i B.Orzibaevlarning hisobotlari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

Namangan shahar iqtisodiyot va moliya bo‘limining shahar mahalliy budgeti 2024-yil birinchi chorak yakuni bilan shahar mahalliy budgeti daromadlari va xarajatlari ijrosi 1 va 2-ilovalarga muvofiq tasdiqlansin.

2. Namangan shahar hokimligi, hududiy budget mablag‘lari taqsimlovchilarning e’tibori budget mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish, budget intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish, tegishli mahalliy budgetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minalash zarurligiga qaratilsin.

3. Hududiy budget mablag‘lari taqsimlovchilar budget jarayonining ochiqligini ta’minalash maqsadida rasmiy veb-saytlarga ma’lumotlarni belgilangan tartibda joylashtirib borilishi ta’minalasınlar.

4. Shahar iqtisodiyot va moliya bo‘limi, ijtimoiy soha tarmoq boshqarmalari bilan birgalikda ijtimoiy soha muassasalari uchun ajratilgan mablag‘larni to‘liq moliyalashtirilishi ta’minalasini hamda ijrosini qat’iy nazoratga olsin.

5. Shahar Davlat soliq inspeksiyasiga:

budget daromadlari prognoz rejasini so‘zsiz oshirib bajarish;

budget daromadlari tushumini uzlusiz bir maromda undirilishi ta’minalash;

mahalliy budgetga qo‘srimcha daromadlar tushumini ta’minalash, soliq yig‘uvchanligini oshirish hamda boqimanda qarzdorliklarni keskin kamaytirish yuzasidan zarur choralarni ko‘rish vazifalari topshirilsin.

6. Shahar hokimligi tegishli mutasaddi tashkilotlar bilan birgalikda budget daromadlarining prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishini ta’minalasınlar, hududning soliq solish bazasi kengaytirilishi va moliyaviy salohiyati mustahkamlanishi yuzasidan zaruriy chora-tadbirlar ko‘rsinlar, budget mablag‘laridan manzilli, maqsadli va samarali foydalanish;

O‘zbekiston Respublikasi Budget kodeksining 126-moddasiga asosan Qoraqalpog‘iston Respublikasi respublika budgetining, viloyatlar viloyat budgetlarining, Toshkent shahri shahar budgetining, tumanlar va shaharlar budgetlarining qo‘srimcha manbalardan foydalanish to‘g‘risidagi qarorlar tegishli ravishda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar Kengashlari tomonidan Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining, viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimliklarining takliflariga asosan birinchi navbatda ijtimoiy soha muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash maqsadida qabul qilinishi bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

davlat va jamoat ehtiyojlari uchun yer uchastkalarini olib qo‘yilishida amaldagi qonunchilik talablariga qat’iy rioya etilishini nazoratga olsinlar.

7. Namangan shahar hokimligining axborot xizmatiga Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqligi va shaffofligini, axborot olish erkinligini ta’minalash orqali jamoatchilik nazoratini takomillashtirish maqsadida mazkur qarorni shahar hokimligining rasmiy saytiga joylashtirish vazifasi topshirilsin.

8. Shahar iqtisodiyot va moliya bo‘limi hamda shahar Davlat soliq inspeksiysi Xalq deputatlari shahar Kengashiga mahalliy budgetning ijrosi to‘g‘risida har chorakda hisobot berib borish tizimining davomiyligini ta’minlasin.

9. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari shahar Kengashining mahalliy budgetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasiga topshirilsin.

Kengash raisi



OTAXODJAYEV
ANVAR
XOJAXANOVICH

Xalq deputatlari Namangan shahar
 Kengashining
 2024-yil 15-maydag'i
 VI-59-40-6-91-K/24 -son qaroriga
 1-ilova

2024 yil birinchi chorak mahalliy budjet daromadlari ijrosi to‘g‘risida
HISOBOT

T/r	Daromad turlari	<i>mln.so‘mda</i>			
		Reja	Ijro	Ko‘rsatkichlar	
				Farqi	Foizda
	JAMI	0	101 954	101 954	0%
1	Aylanmadan soliq		10 535	10 535	0%
2	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i		57 561	57 561	0%
3	Tadbirkorlik faoliyati bilan shugullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan qat’iy belgilangan daromad solig‘i		2 860	2 860	0%
4	Aksiz solig‘i oxirigi iste’molchiga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiyasi		3 520	3 520	0%
4	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq			0	0%
5	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq		7 817	7 817	0%
6	Yuridik shaxslarning yer solig‘i		23	23	0%
7	Jismoniy shaxslarning yer solig‘i		6 018	6 018	0%
8	yagona yer solig‘i			0	0%
9	Er qa’ridan foydalanganlik uchun soliq (noruda materiallari)		45	45	0%
10	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq		2 220	2 220	0%
11	Mahalliy yig‘imlar		6 820	6 820	0%
12	Boshqa tushumlar		4 535	4 535	0%

Xalq deputatlari Namangan shahar
 Kengashining
 2024-yil 15-maydagi
 VI-59-40-6-91-K/24 -son qaroriga
 2-ilova

2024 yil birinchi chorak mahalliy budjet xarajatlari ijrosi to‘g‘risida
HISOBOT

T/r	Xarajatlar nomi	Aniqlangan reja	Haqiqatda ijro	Bajarilishi	
				Farqi	%
	XARAJATLAR-jami	185 678	182 705	-2 973	98%
I.	Ijtimoiy soha xarajatlari	105 803	96 984	-8 820	92%
	<i>shu jumladan:</i>				
	Maktabgacha ta’lim	15 399	14 008	-1 392	91%
	Umumta’lim maktablari	10 287	8 340	-1 947	81%
	Sog‘liqni saqlash	72 935	67 684	-5 251	93%
	Tibbiy-ijtimoiy xizmatlar uchun xarajatlar	0	0	0	0%
	Madaniyat va ommaviy axborot vositalari	964	882	-82	92%
	Sport	5 926	5 820	-106	98%
	Ijtimoiy ko‘nikma markazlari	293	250	-42	86%
II.	Iqtisodiyotga xarajatlar	36 836	21 768	-15 068	59%
	<i>shu jumladan:</i>				
	Obodonlashtirish	23 719	20 754	-2 965	88%
	Ichki xo‘jalik avtomobil yo‘llarni ta’mirlash xarajatlari	12 000	0	-12 000	0%
	Mahalliy byudjetlarda hokim yordamchilarining tavsiyalari asosida mahalla infratuzilmasini yaxshilash	405	405	0	100%

T/r	Xarajatlar nomi	Aniqlangan reja	Haqiqatda ijro	Bajarilishi	
				Farqi	%
	uchun				
	Veterinariya qo‘mitasi	713	610	-103	86%
III.	Markazlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirishga xarajatlar	2 000	1 986	-14	99%
IV.	Davlat boshqaruv organlarini saqlash	19 585	17 973	-1 611	92%
	<i>shu jumladan:</i>				
	Davlat hokimiyat organlari	19 585	17 973	-1 611	92%
	Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarini saqlash	571	571	0	100%
	Zahira jamg‘armasi	1 496	1 369	-128	91%
	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi mablag‘lari	16 054	7 129	-8 926	44%
V.	Boshqa xarajatlar	3 333	34 926	31 593	1048%
	<i>shu jumladan:</i>				
	Boshqa xarajatlar	1 094	32 690	31 596	2987%
	Byudjetdan tashkari boshka jamg‘armalarga beriladigan mablaglar	1 500	1 500	0	100%
	Advokatlar xizmati	238	236	-2	99%
	Obod kishlok va Obod mahalla jamgarmasiga ajratiladigan mablaglar	500	500	0	100%